



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 8-sinflar uchun
ona tili fanidan II chorak

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 8-sinf ona tili fanidan II chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Qomusiy olimlar. Matn ustida ishlash	1		
2.	Omonimlar. Ko‘p ma’noli so‘z va omonimlarning o‘zaro farqi	1		
3.	“Bioinformatika qanday fan?” matni ustida ishlash.	1		
4.	Aniqlovchi	1		
5.	Kartogramma, diagramma va jadval shaklidagi ma’lumotlarni o‘qiy olish, ularni taqqoslash	1		
6.	“Samolyot qachon yaratilgan?” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari	1		
7.	Aniq va mavhum otlar	1		
8.	Paronimlar va ularni qo‘llash	1		
9.	“Paronimlar o‘quv lug‘ati” taqdimoti	1		
10.	4-nazorat ishi	1		
11.	“Kelajak kasblari” matni ustida ishlash	1		
12.	Tovush ortishi hodisasi.	1		
13.	Variantdosh so‘zlar	1		
14.	“Ko‘ngil shamchirog‘i” matni ustida ishlash	1		
15.	Nisbat shakllari	1		
16.	“Kasb tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerak?” (audiomatn). Tinglab tushunish topshiriqlari	1		
17.	Sodda va qo‘shma gaplar ma’nodoshligi	1		
18.	“Zamonamiz qahramonlari kimlar?” ijodiy ishlar taqdimoti	1		
19.	Ariza. Mustahkamlash	1		
20.	5-nazorat ishi	1		
21.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Qomusiy olimlar. Matn ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: eshitilgan yoki o'qilgan matnlardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:


№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Algebra” so(zi **al-Xorazmiyning** “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala” risolasi nomidagi “al-jabr” so'zidan olinganini bilsangiz kerak. Xorazmiy arifmetikaga oid “Qo'shish va ayirish haqida kitob”, geografiyaga oid “Yer surati haqida kitob”, astronomiyaga oid “Zij”, “Usturlob bilan ishlash haqida kitob” singari 20 dan ortiq asariar muallifidir. Ma'lumotlarga qaraganda, al-Xorazmiy yozgan “Qo'shish va ayirish haqida kitob”ning lotin tilidagi tajjimasi bundan yetti asr muqaddam ko'chirilgan bo'lib, mazkuryagona nusxa Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Al-Xorazmiyning risolasi “Diksit Algorizmi”, ya'ni “al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlangan. Asarda Xorazmiy o'nlik sanoq tizimining _ afzalligini isbotlaydi, shuningdek, har qanday yirik sonni ham lo'nda qilib ifodalash mumkinligini aytadi. Bu Yevropa xalqlari uchun yangilik edi. Chunki



ularbungacha Rim raqamlaridan foydalanishar, bu raqamlarning imkoniyati cheklangani bois turii hisob-kitoblarda katta mashaqqatlarga duch kelishardi.

Abu Rayhon Beruniy yirik ilmiy kashfiyotlari bilan jahon tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan buyuk olim hisoblanadi. Hozirgi zamon fanlarining barchasida Beruniyning ilmiy kashfiyotlaridan u yoki bu tarzda foydalaniladi. Olim birinchi bolib Yer shari globusini yasagan. Bu ixtirodan geograflar bugun ham foydalanmoqda. Buyuk ixtirochi o'zining "Hindiston" asarida shunday yozadi: "Yerning aylanish harakati astronomiya fani hisoblariga hech qanday zid kelmaydi, balki Yerda yuz beradigan hodisalar uning harakati bilan birga bir tekis davom etaveradi". Bunday fikrga Galileo Galiley Beruniydan 600 yil keyin kelgan. Beruniy xuddi shu asarida Xristofor Kolumbdan 450 yil ilgari ummon ortida hozirgi Amerika qit'asi bo'lishi mumkinligini bashorat qilgan edi.



Ahmad al-Farg'oni - jahonga dong'i ketgan astronom, matematik, muhandis, gidrotexnik. Yevropada u Alfraganus nomi bilan mashhur. Allomaning asosiy asari - "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" kitobi XII—XIII asrlarda Yevropa tillariga tarjima qilingandan so'ng olimning ismi lotin tiliga "Alfraganus" shaklida o'girildi va u g'arbda bir necha asr davomida keng tarqaldi. Farg'oniyning bu kitobi o'sha davrlarda Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tadi. Ahmad Farg'oni xalifa Mutavakkilning farmoni bilan Qohirada Nil daryosidagi Ravzo orolida miqyos - suv sathini o'lchovchi asbob yasaydi. Bu inshoot 861-865-yillarda qurilgan. O'n bir asrdan ortiq xalq xizmatida bo'lgan suv inshooti - Asvon to'g'oni qurilgach, o'z ishini to'xtatgan va muzeyga aylantirilgan.



Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan **Abu Ali ibn Sino** qomusiy olim edi, u o'z davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan shug'ullangan. Ilmiy adabiyotlarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asar qayd etilgan. Ammo bizgacha ularning yarmi yoki undan sal ko'prog'i yetib kelgan xolos. Ko'p qirrali qobiliyat sohibi Ibn Sino ayniqsa falsafa va tabobat sohalarida o'chmas iz qoldirdi, jahonga mashhur tabib sifatida tanildi. Olimning shoh asari - "Tib qonunlari" unga katta shuhrat keltirdi. O'z mazmuniga ko'ra, mazkur asar tibbiy bilimlarning nodir majmuasi - qomusi hisoblanadi. “

“Buyuk yurt altomalari” kitobidan

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Olimlar qanday faoliyat bilan shug'ullanishadi? Qaysi olimlarning kashfiyotlari bilan tanishsiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Omonimlar. Ko‘p ma’noli so‘z va omonimlarning o‘zaro farqi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Quyidagi so‘zlar qaysi jihatlariga ko‘ra guruhlangan? Ularni davom ettiring.

avlod – ajdod	katta – ulkan	band (<i>band</i> bo‘lmoq, gulning bandi)	azim – azm
ilmiy – g‘ayri ilmiy	sovg‘a – hadya	davlat (<i>davlat</i> arbobi, davlati ko‘p odam)	burch – burj
zarar – foyda	solishtirmoq – taqqoslamoq	kechik (<i>kechik</i> dan o‘tmoq, ishga kechikmoq)	davo – da‘vo
***	***	***	***

Shakldosh (omonim) soʻzlarga mos izohlarni topib, yozing. Har bir soʻzdagi ikkita ortiqcha javobni aniqlang.

QADOQ	palak otib oʻsadigan oʻsimlik	choy damlanadigan idish
	qogʻozga, boshqa narsaga joylangan maʼlum miqdordagi choy	teridagi qattiq qavariq
BARGAK	quritilgan danaksiz oʻrik	tolning erta koʻklamdagi novdasi
	quritilgan danakli oʻrik	qayragʻochning bargi
CHAQMOQ	tabiat hodisasi	sir saqlash
	oʻtkir tigʻli asbob	qandning bir boʻlagi
ZANG	baland ovoz	metall sirtining yemirilishi
	tokning qalin tanasi	cholgʻu asbobi

Omonimlar talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo bir-biriga bogʻliq boʻlmagan maʼno ifodalovchi birliklardir. Omonimlar bilan koʻp maʼnoli soʻzlarni farqlash kerak. Omonimlar bir xil shaklga ega boʻlgan turli soʻzlardir: *burun* (yuz qismi) - *burun* (avval).

Koʻp maʼnoli soʻzlar esa bir soʻzning turli maʼnolaridir: *burun* (yuz qismi) - *burun* (choynakning qismi). Omonimlar ham, koʻp maʼnoli soʻzlar ham qanday maʼnoda kelayotgani matn orqali aniqlanadi.

Lugʻatlarda omonim soʻzlar rim raqamlari bilan tartiblanadi:

Rasm I. Qoʻlda chizilgan, bosma yoki fotografik tasvir, surat.

Rasm II. Biror jamiyatda odat hukmiga kirgan tartib-qoida; urf, udum, taomil.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Namuna asosida omonim soʻzlarning maʼnosini yozing. Diqqat, qavs ichida soʻzning nechta shakldoshini topishingiz koʻrsatilgan. Yozgan soʻzlaringiz maʼnosini izohli lugʻatdan tekshiring.

Namuna:	AZOT (2)	1) koʻtarmoq, dast koʻtarmoq; 2) kimyoviy element.		
band (4)	dam (4)	erish (2)	kech (3)	luqma (2)
soz (3)	tom (4)	xayr (2)	chek (5)	chogʻ (4)

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Toʻrtta tuyuq toping. Unda qoʻllangan omonim soʻzlarning har biriga izoh yozing.

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

44 listdan iborat ona tili fanidan 8-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**